


**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)**  
**magistratura mutaxassisligining malaka talablari**



**Toshkent**

## **ISHLAB CHIQILGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil « 21 » avgust dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

| T/r    |  | bet |
|--------|--|-----|
| 1.     | 70310102 - <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi .....   | 4   |
| 1.1.   | Qo'llanish sohasi .....  | 4   |
| 1.1.1. | 70310102 - <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.....                             | 4   |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....   | 4   |
| 1.2.   | 70310102- <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tavsifi.....                           | 4   |
| 1.2.1. | 70310102 - <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....                        | 4   |
| 1.2.2. | 70310102- <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....                    | 4   |
| 1.2.3. | 70310102 - <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....                      | 5   |
| 1.2.4. | 70310102 - <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....                                 | 5   |
| 2.     | 70310102 - <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....   | 7   |
| 2.1.   | Umumiy kompetensiyalar.....  | 7   |
| 2.2.   | Kasbiy kompetensiyalar.....  | 8   |
| 2.3.   | Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....                                  | 8   |
| 2.3.1. | Kvalifikatsiya.....  | 9   |
| 2.3.2. | 70310102 - <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)</i> ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar..... | 9   |
| 2.3.3. | 70310102 - <i>Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....                                 | 9   |
|        | Bibliografik ma'lumotlar.....  | 10  |
|        | Kelishuv varag'i.....  | 11  |



## **1. 70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi**

**70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil. Uning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq o‘zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxsga «magistr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. 70310102**

– **Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi **70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur mutaxassislik va tayyorgarlik darajasi bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda ta‘lim dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas‘ul – oliy ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari;

- magistratura mutaxassisliklarining ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalar;

- o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- oliy ta‘lim muassasasini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- magistratura mutaxassisligini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo‘lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdorlar.

### **1.2. 70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tavsifi**

#### **1.2.1. 70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

**70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)** – “Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar” ta‘lim sohasiga oid mutaxassislik bo‘lib, u barcha ta‘lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, mutaxassislikka oid kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat;



- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- real sektor korxonalarining rivojlanishi strategiyasini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi;
- davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati subyektlarining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiyot sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlari;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya organlarida boshqaruv jarayonlari;
- iqtisodiyotning tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayonlari;
- tarmoqlar va sohalar iqtisodiyoti sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni, mikro va makro iqtisodiy makonda iqtisodiy ko'rsatkichlarining tahlili jarayonlari.
- tarmoqlar va sohalar korxonalarida investitsion va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish;
- iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalarida mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarining rivojlanish jarayonlari.

### **1.2.3. 70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- moliyaviy-iqtisodiy faoliyat;
- hisob, tahlil va nazorat faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati;
- konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

### **1.2.4. 70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy vazifalari**

70310102 – *Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida)* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalar, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

#### **Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;



- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

#### **Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:**

- davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

- iqtisodiyot tarmoq va sohasining miqdor va sifat me'zonlari, iqtisodiy tizim va obyektlar chegaraviy hamda kritik holatining indikatorlarini aniqlash;

- barqaror iqtisodiy rivojlanish sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

- iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;

- O'zbekistondagi hamda xorijdagi mikro va makro darajada sodir bo'ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash, iqtisodiy rivojlanishga tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash;

- byudjet tizimi va byudjet parametrlari, byudjetdan tashqari turli jamg'armalarning shakllanishi hamda bajarilishini nazorat qilish, davlat va mahalliy resurslaridan samarali foydalanish choralarini ko'rish;

- moliya operatsiyalari, moliya bozori faoliyati monitoringini olib borish, davlat va mahalliy tashkilotlar, korxonalarda ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

- fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish;

- iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish

- tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy rivojlanish sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

- qabul qilinadigan qarorlarni iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

- tarmoqlar va sohaslar bo'yicha korxonalarining tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni rejalashtirish va amalga oshirish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

- ilmiy va amaliy faoliyatda raqamli iqtisodiyot texnologiyalari va ekotizim vositalarini rivojlantirish;

- iqtisodiyot tarmoq va sohasi korxonalarida yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tatbiq qilinishini tashkil etish.

#### **Konsalting xizmati faoliyatida:**



- iqtisodiy faoliyat sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;
- iqtisodiy faoliyat sohasida mutaxassislikka mos bo'lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;
- mutaxassislikka mos mavzular bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

## **2. 70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;
- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalar bilan mutanosibligi va farqini bilishi;
- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;
- shaxsning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;
- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;
- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;
- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;
- kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida xorijiy tillardan birini egallagan bo'lishi;
- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;
- o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;
- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashuv shakllangan bo'lishi;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;



- patent olish uchun ish me'yoriy hujjatlar tayyorlay olish;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar**

- ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish qobiliyatiga ega bo'lishi;
  - yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.
  - loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha jamoasini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi;
    - e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.
    - Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini, jumladan o'quv ustaxonalarida, o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;
      - o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;
      - zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;
      - o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
      - o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;
      - mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi;
      - elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi;
      - uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.
      - mutaxassislik bo'yicha tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida mavjud holatning analitik obzorlarini (tahlillarini) ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

## **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

- Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.
  - Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.
  - Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.
    - Magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy amaliyot o'tkaziladi;
    - ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.



2.3.1. Kvalifikatsiya: iqtisodchi, tadqiqotchi-pedagog

2.3.2. 70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat | Ajratilgan kredit |
|--|---|-------------------|
| Majburiy fanlar  | 1380  | 46                |
| Tanlov fanlar  | 420   | 14                |
| Ilmiy faoliyat   | 1800  | 60                |

2.3.3. 70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

| T.r.        | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|-------------|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|----------|
| <b>1.00</b> |                        | <b>Majburiy fanlar</b>                                 | <b>1380</b>                         | <b>46</b>      |          |
| 1.01        | ITMM1304               | Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi                          | 120                                 | 4              | 1        |
| 1.02        | MFO'MM1404             | Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi                    | 120                                 | 4              | 2        |
| 1.03        | MIKIQM1404             | Mikroiqtisodiyot 2                                     | 120                                 | 4              | 1        |
| 1.04        | INVLTM1406             | Investitsion loyihalar tahlili                         | 180                                 | 6              | 1        |
| 1.05        | AGRIQM1406             | Agrar iqtisodiyot                                      | 180                                 | 6              | 2        |
| 1.06        | MAIQM2404              | Makroiqtisodiyot 2                                     | 120                                 | 4              | 3        |
| 1.07        | QXRQM2406              | Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish                    | 180                                 | 6              | 3        |
| 1.08        | QXRBM2406              | Qishloq xo'jaligida rejalashtirish va bashoratlash     | 180                                 | 6              | 3        |
| 1.09        | ATRM1QTM1406           | Atrof muhit iqtisodiyoti                               | 180                                 | 6              | 1        |
| <b>2.00</b> |                        | <b>Tanlov fanlar</b>                                   | <b>420</b>                          | <b>14</b>      |          |
| 2.00        |                        | Tanlov fanlar (3)                                      | 420                                 | 14             | 2,3      |
|             |                        | <b>Jami</b>  | <b>1800</b>                         | <b>60</b>      |          |
|             |                        | <b>Ilmiy faoliyat</b>                                  | <b>1800</b>                         | <b>60</b>      |          |
|             |                        | <b>Jami</b>  | <b>1800</b>                         | <b>60</b>      | 1,2,3,4  |
|             |                        | <b>HAMMASI</b>   | <b>3600</b>                         | <b>120</b>     |          |

## Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 33.333

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, raqobat, raqobatbardoshlik, sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya, tarkibiy o'zgarishlar, yangilanish va miqdoriy o'sib borishi, ishlab chiqarish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, xalqaro ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv, aralash iqtisodiyot, iqtisodiy sikllar, iqtisodiy o'sish, ish haqi, agrar munosabatlar, ko'p ukladli iqtisodiyot, o'tish davri, ishlab chiqarish xarajatlari, mulkchilik munosabatlari, moliyaviy va real investitsiyalar, investitsion muhit, mehnat va ilmiy salohiyat, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, inson resurslarini boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.



Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQUILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor  S. Islamov

2023 yil « 10 » 07

M.O'.



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor  Sh. Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.



Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida  
strategik va tadqiqotlar xalqaro markazi

Direktor  A. Shukurov

2023 yil « 12 » 07

M.O'.



O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari  
uyushmasi


Rais  M. Rahmatov

2023 yil « 19 » 07

M.O'.



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor  K. Sharipov

2023 yil « 20 » 07

M.O'.





## TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

70310102 – Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

### KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil.

“ 10 ” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori prof. K.A.Sharipov, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik va tadqiqotlar xalqaro markazi direktori A.Shukurov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70310102 - Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida) magistratura mutaxassisligi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**  
rektori, professor

  
K.Sharipov

✓ **Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida**  
**strategik va tadqiqotlar xalqaro markazi**  
direktori

  
A.Shukurov

**Toshkent davlat agrar universiteti**  
birinchi prorektori, professor

  
S.Islamov